

EKSPLUATATSION QIDIRUV MAQSADIDA BURG'ULANGAN QUDUQLARDA NAMUNALASHNING OPTIMAL USULLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA ZAHIRALARNI HISOBLASH

*Ochilov SH.X, Muhammedov J.E, Xashimov B.B, Ergashov N.T.
Geologiya fanlari universiteti "Mineral resurslar instituti" davlat muassasasi
"Geologiya qidiruv ishlari uslubiyoti" bo'limi kichik ilmiy xodimilari*

Annotatsiya. Maqolada ekspluatatsion qidiruv ishlari uchun amalga oshirilgan burg'u quduqlaridan namunalash usullari keltirilgan. Xar-xil namunalash usullari orqali olingan namunalarning taxlil natijalari asosida blokli modeli va zaxiralari aniqlangan.

Аннотация. В статье представлены способы отбора проб из скважин для эксплуатационной разведки. По результатам анализа проб, полученных различными методами опробования, определена блочная модель и запасы.


Annotation. The article presents methods of sampling from wells for operational exploration. Based on the results of the analysis of samples obtained by various sampling methods, a block model and reserves were determined.

Kalit so'zlar: ekspluatatsion qidiruv, Oliy ziyo, Qalmoqqir va Yoshlik SBSH-250, Micromine, pirit, xalkopirit, kvarts, magnetit, gematit, seritsit, xlorit, molibdenit, galenit, sfalerit, bornit, markazit, faxlor, kalsit, ankerit, barit, kaliyli dala shpati, angidrit, Richards-Chechett.

Qattiq foydali qazilma konlarini sanoatda o'zlashtirishda ekspluatatsion qidiruv ishlari alohida o'rin tutadi. Bu birinchi navbatda geologik qidiruv ishlarining yakuniy bosqichlardan biri bo'lsa, ikkinchi navbatda qazib olish ishlarining dastlabki va ajralmas qismidir. Aynan ekspluatatsion qidiruv ishlari natijalari foydali qazilmani qazib olishda optimal texnologik qarorlarni qabul qilish imkonini beradi. Ekspluatatsion qidiruv ishlarining asosiy vazifalari, foydali qazilma konturlari, moddiy tarkibi va ichki tuzilishi, ma'danlarning texnologik turlari va foydali qazilma zaxiralarining miqdori va sifatini, ma'danning maydonini bilan aniqlash, gidrogeologik, tog'-kon va muhandislik-geologik sharoitlarni, alohida uchastkalar, gorizontlar, bloklar bo'yicha aniqlash borasida ishonchli ma'lumotlar beradi. Shu maqsadda "Olmaliq KMK" AJ tegishli "Oliy ziyo" konida burg'ulash va burg'u quduqlaridan namunalash ishlari amalga oshirildi. Bundan ko'zda tutilgan asosiy maqsad "Oliy ziyo" konida (Qalmoqqir va Yoshlik) qazib olishda va namunalashda optimal metodlarini tanlash hamda shu asosida konni zaxirasini hisoblash.

Oliy Ziyo, Qalmoqqir va Yoshlik mis-porfirli konlariga amalga oshirilgan xizmat safarlari davomida Ekspluatatsion qidiruv ishlarini amalga oshirish jarayonini o'rganildi. Qalmoqqir koni muhandislari bilan Ekspluatatsion qidiruv ishlarini SBSH-250 rusumli burg'ulash uskunasi ish faoliyati hamda amalda qo'llanilnayotgan namunalash usullari bilan tanishildi. Karyerdagi burg'u quduqlaridan namuna olishning aniqliligi va ishonchliligi bo'yicha uslubiy

qo'llanmaga ko'ra, bajariladigan ishning samaradorligini oshirish uchun muhandis geologlar bilan kelishib bir nechta bloklar tanlab olinib 8x8 va 16x16 setkada burg'ulash ishlari natijalari bilan tanishildi.




657 blokning 8x8 va 16x16 m setkadagi burg'ulash tarmog'i, namunalash oralig'i 15,0 m.

Blok №	Burg'ulash to'ri	Hajmi (m ³)	Hajmiy og'irlik (t/m ³)	Ruda (t)	Cu (%)	M Cu (t)
Blok 657	8x8	44902,5	2,6	116746,5	0,453	529,7
Blok 657	16x16	44902,5	2,6	116746,5	0,454	530,9

657 Blokni 8x8 va 16x16 burg'ulash to'ridagi iqtisodiy ko'rsatgichlari


Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki 8x8 metrli va 16x16 metrli burg'ulash to'ridagi natijalar bir-biridan farq deyarli farq qilmaydi. 8x8 metrli burg'ulash to'rida harajat va vaqt ko'p sarflanadi. Shuning uchun 16x16 metrli burg'ulash to'rida Ekspluatatsion qidiruv ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqligi belgilab olindi. 8x8 m burg'ulash to'rida burg'ulash ishlari amalga oshirildi. Namunalash oralig'i 5 m va 15 m bo'lgan 4 kg dan kam bo'lmagan namunalari olindi. Olingan namunalari laboratoriyada Richards-Chechett $Q=kd^2$ tenglamasi orqali qisqartirildi. Bunda quyidagi sxema orqali qayta ishlash amalga oshirildi. Tayyor namunalarni 4 ta metall (Cu, Mo, Au, Ag) uchun kimyoviy tahlilga yuborildi. Namunalarning tahlil natijalari va burg'u quduqlarining ma'lumotlari raqamlashtirilib Micromine dasturiga yuklandi.




8x8 burg 'ulash to'ridagi quduqlardan olingan namunalar tahlili asosidagi blokli modelida Kumushning (Ag) tarqalishi namunalash oralig'i 5 metr.

8x8 m burg 'ulash to'ridagi quduqlardan olingan namunalar tahlili asosida hisoblangan rumushni zaxirasi

Blok	Hajmi (m ³)	Hajmiy og'irlik (t/m ³)	Ruda (t)	Ag (%)	Ag (t)	Namunalash oralig'i
1-490	50205,25	2,6	130533,65	2,29	299,43	5M
1-490	50205,25	2,6	130533,65	2,16	281,83	15M
Farqi +	-	-	-	0.13	17,6 %	



8x8 burg 'ulash to 'ridagi qududlardan olingan namunalar tahlili asosidagi blokli modelida Kumushning (Ag) tarqalishi namunalash oralig' i 15 metr.



Namunalash oralig' i 5m va 15 m bo'lgan 490 - blokda misning (Cu) taqsimlanish gistogrammasi.

Namunalash oralig' i 15m va 5 m bo'lgan 490 - blokda misning (Cu) zaxirasi

Blok	Hajmi (m ³)	Hajmiy og'irlik (t/m ³)	Ruda (t)	Cu (%)	Cu (t)	Namunalash oralig' i
1-490	50205,3	2,6	130 533,7	0,49	64	5 m
1-490	50205,3	2,6	130 533,7	0,48	63	15 m
Farqi +	-	-	-	-	-1,6 %	

Oliy ziyo konining (Qalmoqqir karyeri) qo'llanilaniyotgan namunalash usullari ishonchliligi aniqlandi. Misning konda bir xilda tarqalganligi bir qancha o'tkazilgan namunalash usullarida o'z tasdiqini topdi. Rudalarning mineral tarkibi qanday foydali komponent mavjudligi alohida ahamiyatga ega. Bu namunalashning ishonchliligiga ham, uni qazib olish texnologiyasiga tasir qiladi. Mis porfirli konlarining barcha zonasida rudalarning asosiy massasiga boshqa foydali qazilmalar agregatlari uchraydi. Bu mis porfirli rudalarni tarkibining qashshoqlashishi sabablaridan biri edi. Asosiy minerallar: pirit, xalkopirit, kvars, magnetit, gematit, seritsit, xlorit. Keng tarqalgan boshqa minerallar Molibdenit, galenit, sfalerit, bornit, markazit, faxlor, kalsit, ankerit, barit, kaliyli dala shpati, angidrit uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Охунов и. и др. «Изучение и анализ достоверности, а также выбор оптимальной методики опробования при эксплуатации и добыче руд карьера олий зиё» Заключительный отчет о результатах работ по договору от 13.12.2021г. №63-6892ЮР между АО «АГМК» с ГУ «ИМР» за 2022-2023. г
2. И.Д. Коган «Подсчет запасов и геолого-промышленная оценка рудных месторождений», Москва «Недра» 1974.
3. Р.М.Константинов «Математические методы количественного прогноза рудоносности», Москва «Недра» .
4. Акбаров Х.А., Умарходжаев М.У, Исматуллаева ЛА. «Типы геолого-структурных позиций рудных полей и месторождений Чаткало-Кураминского региона» Структурные условия размещения руд, методы их прогнозирования, оценки и разведки. Т., САИГИМС, 1988, вып.